

PROFILAKTIK EMLASH AHAMIYATI

*Xoshimova Durdona Fazliddin qizi**Beshariq Abu Ali ibn Sino Nomidagi**Jamoat salomatligi Texnikumi o'qituvchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada profilaktik emlashning ilmiy-tibbiy mohiyati, immunitet shakllanish mexanizmlari hamda uning epidemiologik va ijtimoiy ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: profilaktik emlash, vaksina, immunitet, jamoaviy immunitet, epidemiologiya, jamoat salomatligi.

Dolzarbliigi: Yuqumli kasalliklar global sog'liqni saqlash tizimi oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Aholi migratsiyasi va urbanizatsiya sharoitida infeksiyalarning tez tarqalish xavfi ortib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan, profilaktik emlash kasalliklarning oldini olishda ilmiy jihatdan eng samarali usul sifatida e'tirof etiladi.

Profilaktik emlash tushunchasi.

Profilaktik emlash — bu sog'lom odam organizmiga maxsus vaksina kiritish orqali muayyan yuqumli kasallikka qarshi sun'iy immunitet hosil qilish jarayonidir. Vaksinalar kasallik qo'zg'atuvchisining zaiflashtirilgan, o'ldirilgan yoki uning bir qismi asosida tayyorlanadi. Bu moddalar kasallik chaqirmaydi, ammo immun tizimini faollashtirib, himoya mexanizmlarini shakllantiradi.

Emlash qanday ishlaydi?

Inson organizmiga vaksina kiritilganda, immun tizimi uni begona modda sifatida qabul qiladi va unga qarshi antitanachalar ishlab chiqaradi. Shu bilan birga, "immun xotira" shakllanadi. Agar kelajakda haqiqiy infeksiya organizmga kirsam, immun tizimi uni tezda tanib, kasallik rivojlanishiga yo'l qo'ymaydi yoki uni yengil shaklda o'tkazishga yordam beradi.

Tarixiy ahamiyati.

Tarixga nazar tashlasak, emlash tufayli ko'plab dahshatli kasalliklar deyarli yo'q qilinganini ko'ramiz. Ilgari minglab odamlarning umriga zomin bo'lgan chechak kasalligi emlash orqali butunlay yo'q qilingan. Poliomyelit, qizamiq, difteriya, ko'kyo'tal kabi kasalliklar ham aynan profilaktik emlash sababli keskin kamaygan.

Bolalar salomatligini himoya qilish

Bolalar immun tizimi hali to'liq shakllanmagan bo'lgani sababli yuqumli kasalliklarga juda moyil bo'ladi. Profilaktik emlashlar bolaning hayotining ilk kunlaridan boshlab uni xavfli kasalliklardan himoya qiladi. Emlash kalendariga muvofiq olingan vaksinalar bolalarning sog'lom o'sishi, maktabda yaxshi o'qishi va

kelajakda sog'lom avlod bo'lib yetishishiga xizmat qiladi.

Hayotining ilk yillarida o'tkazilgan profilaktik emlashlar:

- o'lim ko'rsatkichlarini kamaytiradi;
- og'ir asoratlarning oldini oladi;
- jismoniy va psixik rivojlanishni ta'minlaydi.

Ilmiy kuzatuvlarga ko'ra, emlanmagan bolalarda kasallikning og'ir kechish ehtimoli bir necha barobar yuqori bo'ladi.

Ko'pchilik emlash faqat bolalar uchun, degan noto'g'ri fikrga ega. Aslida, kattalar ham ayrim kasalliklarga qarshi muntazam emlanib turishlari lozim. Ayniqsa, gripp, gepatit, qoqshol kabi kasalliklarga qarshi emlashlar kattalar salomatligini saqlashda muhim ahamiyatga ega.

Jamoaviy immunitet tushunchasi

Profilaktik emlashning eng muhim jihatlaridan biri — jamoaviy immunitetdir. Aholining katta qismi emlangan bo'lsa, kasallikning tarqalish zanjiri uziladi. Natijada, emlana olmaydigan shaxslar — chaqaloqlar, og'ir kasalligi bor bemorlar ham himoyalanaadi. Shu sababli emlash ijtimoiy mas'uliyat va fuqarolik burchi hisoblanadi.

Emlash xavfsizligi va asossiz qo'rquvlar

Zamonaviy vaksinalar ko'p bosqichli klinik sinovlardan o'tkazilib, xavfsizligi qat'iy nazorat qilinadi. Ba'zi hollarda emlashdan so'ng yengil nojo'ya ta'sirlar — isitma, holsizlik yoki ineksiya joyida qizarish kuzatilishi mumkin. Bu holatlar qisqa muddatli bo'lib, sog'liq uchun xavf tug'dirmaydi. Emlanmaslik esa kasallikning og'ir kechishi va asoratlarga olib kelishi mumkin.

Xulosa

Emlash va zamonaviy jamiyat

Bugungi kunda yolg'on axborotlar va ilmiy asosga ega bo'lmagan fikrlar emlashga nisbatan ishonchsizlikni keltirib chiqarmoqda. Shu bois aholining tibbiy savodxonligini oshirish, emlashning foydasi haqida to'g'ri va ishonchli ma'lumotlar berish juda muhimdir. Shifokorlar, o'qituvchilar va ommaviy axborot vositalari bu borada katta rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O.A.Ruziboyev "Xavfsiz immunizatsiya" kitobi Toshkent "Osiyo Nashryoti"
2. "Xavfsiz immunizatsiya" o'quv qo'llanmasi.